



3 (59)-son
2018-yil, mart

IJODIY PARVOZ

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy, axborot gazetasi

HAR KUNIMIZ NAVRO'Z BO'LSIN!

*Assalomu alaykum aziz, hamkasblar,
hurmatli ustozlar va xodimlar!*

Navro'zi olam o'lkamizga qadam qo'yishi bilan har birimiz tabiatning uyg'onishi, kurtaklar va gul-chechaklar ochilishi, yeru ko'k bag'rida yuz berayotgan o'zgarishlardan, bahor nafasidan bahramand bo'lamiz. Xuddiki, tabiat olami bilan uyg'un va mushtarak bo'lib, bu osuda hayotning har bir kunini qadriga yetib, shukronalik hissi bilan yashash kerakligini yana bir bor anglaymiz.

Fasllar kelinchagi bahorning ana shunday fusunkor damlarida uyg'onayotgan tabiatga boqib, bugungi nurafshon kunlarga, hayotning bebaho noz-ne'matlariga sog'-salomat yetganimiz, jannatmonand yurtimiz osoyishtaligi, osmonimiz musaffoligi, xalqimiz xotirjamligi uchun Yaratganga shukronalar qilamiz.

Ana shu dilbar faslda insonlarning bir-biriga mehribonlik ko'rsatishi, bemorlarga, muhtoj bo'lganlarga beminnat yordam berishi, tabarruk keksalarimizning duosini olish kabi noyob fazilatlar albatta, odamning ko'nglini ko'taradi, doim yaxshilikka intilishga, o'zaro mehr-oqibatli bo'lishga chorlaydi.

Aziz institutimiz jamoasi hamda talabalar!

Bugun olib borilayotgan islohotlar barchamizni Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev

ta'kidlaganlaridek, "Har bir davlat xizmatchisini har kuni o'zining mehnati bilan egallab turgan lavozimiga loyqligini isbotlashi shart"ligiga undamoqda. Demak, har birimiz Vatan oldidagi burchimizni, ertangi kun mas'uliyatini o'z zimmamizga olishga qodir inson ekanligimizni isbotlashimiz lozim. Zero, yosh avlodni tarbiyalashdagi mashaqqatli, lekin zavqli mehnatimizning natijasini ko'rish, yetuk kadr bo'lishlarida innovatsion g'oyalarni jalb etgan holda ishlashni davrning o'zi taqozo etib turibdi.

Fursatdan foydalanib, barchani Navro'z bayrami bilan tabriklab, sizlarning faoliyatingizga rivoj va oilaviy totuvlik tilayman. Mana shu shukuhli, tarovatli damlarda buyuk bobomiz, g'azal mulkingning sultoni Mir Alisher Navoiyning "Har kuning o'lsun Navro'z" – degan tilaklari har birimizning qalbimizga jo bo'lgan desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Yana bir bor barchangizga xush kayfiyat tilab, Navro'zi olam bahordek ochilish, baxt va omad, sevgi-muhabbat olib kelsin, eng ezgu orzularingizni ro'yobga chiqarish sizga nasib bo'lsin.

Navro'zi olam barchamizga muborak bo'lsin!

Ibrohimjon YO'LDOSHEV,
Institut rektori,
filologiya fanlari doktori, professor

XUSH KELDING, NAVRO'Z

*Mana bugun navro'zi olam,
Do'stlar bo'ldi bugun jamul-jam,
Davramizga qo'shiling siz ham
Navro'zingiz bo'lsin muborak!*



*Dalalar-u, qirlar-u tog'lar,
Og'ushida lolalar, gullar
Ko'rib ko'zlar, quvonar dillar
Navro'zingiz bo'lsin muborak!*

*Ulasharlar do'stlar sumalak,
Olam go'yo ma'sum bir malak,
Ko'ngillarda jo'sh urar tilak
Navro'zingiz bo'lsin muborak!*



*Ezgu niyat, pokiza osmon,
Sizga bo'lsin, Sizga armug'on
Dil to'ridan qutlayman chunon
Navro'zingiz bo'lsin muborak!*

Muharram BOZOROVA,
"Kino, televideniye va radio san'ati"
fakulteti Yoshlar ittifoqi yetakchisi,
Muxbirlar klubi sardori

Navro'z bahorgi kun va tun tengligi paytida Sharq xalqlari nishonlaydigan qadimiy an'anaviy xalq bayramidir. Navro'z bayramini dastlab dehqonchilik, hunarmandchilik bilan shug'ullanuvchi o'troq aholi o'rtasida, keyinchalik bu bayram yarim o'troq va ko'chmanchi turkiy xalqlarning ham eng katta bayramlaridan biriga aylanib bordi. Shamsiya (Quyosh) yili hisobida yilning birinchi kuni hisoblanib, dehqonchilik ishlarining boshlanishi sifatida yaxshi niyat, mo'l hosil tilagan holda uy joylarni tozalash, hovliga gullar, mevali daraxt ko'chatlarini o'tqazishdan boshlangan. Navro'z YUNESKO tomonidan 2009-yil 30-sentabr kuni insoniyatning nomoddiy madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan bo'lib, 2010-yilning 19-fevral kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 64-sessiyasi 21-martni "Xalqaro Navro'z kuni" sifatida nishonlash to'g'risidagi qarorni qabul qildi.

Shu tariqa Navro'z biror bir millat yoki madaniyatning bayrami sifatida emas, balki butun insoniyat merosining bir qismi sifatida nishonlanmoqda.



tenglashishi bilan bog'liq holda xalq bayrami sifatida saqlanib qolgan. Navro'z XI asrda Sharq astranom munajjimlari ishlab chiqqan va amalga kiritgan 365 kunlik quyosh kalendari bo'yicha kiradigan yangi yilning bir kuni sifatida (bu ham 21-martdan) bayram qilinadi. Bu kalendar Malik shoh (1072 – 1092 yil) davrida kiritilgan, uning oylari yulduz turkumlari nomi bilan atalgani uchun "burjiy" (ya'ni, yulduz turkumlari – arabcha burj yoki hozirgi astronomlik) kalendar deb nomlangan.

O'zbek xalqi ham Navro'zni qadim zamonlardan buyon yangi yilning boshlanishi sifatida quvonch bilan qarshi olganlar. Odatda, Navro'z bayramidan oldin bug'doy yoki arpani undirishga qo'yilgan va uning maysasidan Navro'z bayrami kunlari sumalak qilingan. Yoshlar Navro'z bayramini kechasi bilan uxlamasdan, ertak va hikoyalar aytishib, o'yin-kulgi bilan kutib olishgan. Navro'z bayramining birinchi kuni o'tchopar, uloq, kurash singari o'yinlar, sayil o'tkazilgan.

Yoshlar bahor haqida qo'shiq aytganlar. Navro'z bayramida motam marosimlari o'tkazilmagan.

Navro'z bayramida ko'kat chuchvarasi, yalpiz, somsa kabi yangi taomlar pishirilgan. Navro'z bayrami yangi yil bayramigina bo'lib qolmay, u avvalo, mehnat bayrami, dehqonchilik ishlarini boshlash bayrami ham bo'lgan.

Sobiq sovet tuzumi davrida Navro'z bayramini nishonlash boshqa diniy bayram va marosimlar singari ta'qiqlangan edi. O'zbekiston o'z davlat mustaqilligini qo'lga kiritgach, boshqa milliy qadriyatlarimiz qatorida Navro'z bayrami ham qayta tiklandi va xalqimiz bu bayramni har yili shodu-xurramlik bilan kutib oladilar.

Bo'ri QODIROV,
tarix fanlari nomzodi, dotsent



TARIX NAZMIDAN TUSHMAYDIGAN AYYOM

Navro'z bayramining paydo bo'lishi haqida ma'lumot Abdulqosim Firdavsiyning mashhur "Shohnoma" asarida yarim afsonaviy shoh Jamshid nomi bilan berilgan.

Navro'z bayrami O'rta Osiyoda islom dini qabul qilinmasdan ancha ilgari mavjud bo'lgan. Bu haqda Abu Rayhon Beruniyning "Kitob at tavhim" ("Tushuntirish") va "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarlarida ham ma'lumotlar berilgan.

Umar Xayyom "Navro'znoma" asarida Navro'z bayramining nishonlanishi haqidagi rivoyatlarni Jamshid davriga bog'lab, shoh Kayumars hamal oyining birinchi kuni yil boshi deb hisoblansin, deb farmon berganini eslatib o'tadi. Asarda "Jamshid shu kunni (farvardin oyining boshi) Navro'z atalsin, deb farmon beradi va odamlarga har yili farvardinning birinchi kunini bayram qilishni, uni yangi yil deb hisoblanishini buyurdi". Bu asarda Navro'z bayramini o'tkazishning shohlar uchun ham maxsus tartib-qoidalar bo'lganligi haqida ham ma'lumotlar berilgan.

Unda bayram farvardinning oltinchi kuni, ya'ni katta Navro'zga qadar davom etgan. Navro'z bayramini o'tkazish tartib-qoidalar bo'yicha Sosoniy podsholari 6 kunda 6 toifa xalqni qabul etganlar va tortiqlar ulashganlar.

Quyosh yili hisobida farvardin oyining avvaliga (22-mart) – kecha bilan kunduzning tenglashgan vaqti va kunduzning uzaya boshlashi, tabiatda jonlanish, bahorning boshlanish davriga to'g'ri keladi. Buni kichik Navro'z bayrami yoki ommaviy Navro'z bayrami deyilgan. Farvardinning oltinchi kuni esa katta Navro'z bayrami yoki maxsus (xususiy) Navro'z bayrami deb atalgan. An'anaga ko'ra, kichik Navro'z bayramidan boshlab hamma narsa amalga kiradi, deb hisoblashgan.

Eron va O'rta Osiyo yerlarida zardushtiylik dini shakllangach, Navro'zga xos urf-odat va an'analari kirgan va diniy bayram sifatida o'tkazish odatga aylangan. O'sha davrda zardushtiylik mafkurasiga mos keladigan kalendar ijod qilishgan, uning oxirgi islohi sosoniylar sulolasidan bo'lgan Yazdigard davrida amalga

oshirilganligi uchun Yazdigard kalendari deb nom olgan.

Bu kalendar 365 kunlik quyosh (shamsiya) kalendari bo'lib, uning 12 oyi 30 kundan 360 kun bo'lgan, qolgan 5 kuni hech bir oyga kimgan, bu kun 21-martda kiradigan yangi yil oldidan alohida hisoblangan va bu kunlarda Navro'z oldidan ibodat qilishgan hamda tayyorgarlik ko'rishgan. Islom dini paydo bo'lgach, Eron, Afg'oniston, O'rta Osiyo, Kavkaz xalqlari islomlashtirilgandan keyin bu kalendar amaldan qolgan. Barcha islomlashtirilgan mintaqalarda islom an'anasi bo'yicha 354 kunlik hijriy qamariy yil hisobi amalga kiritiladi, islom urf-odatlari va an'analari ana shu kalendar bo'yicha ado etiladi. Islom dini va musulmon ruhoniylari zardushtiylikni va uning an'anasi bilan bog'liq bo'lgan Navro'zni taqiqlash uchun uzoq vaqt targ'ibot olib borgan.

Zardushtiylik tugab ketgach, Navro'zdagi zardushtiylik an'analari ham unutilgan, u faqat bahor va dala ishlarining boshlanishi, bahorda kun va tunning

SOLNOMA

1. Muqaddas shonli tariximiz, asriy an'analarimiz aks etgan me'moriy obidalar qad ko'fargan ko'hna Samarqand bugun butun dunyo tamaddunini hayratga solayotgan madaniyat o'choqlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasi turizm sabhiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida "O'zbekiston bo'ylab sayohat qill" Dasturi ishga tushirildi. Unga ko'ra institut rektori, professor Ibrohimjon Yo'ldoshev tashabbuslari bilan "Ovoz rejissyorigi va operatorlik mahorati" kafedrasini mudiri, dotsent vazifasini bajaruvchi Iqbol Meliqo'ziyev boshchiligidagi kafedraning professor-o'qituvchilari hamda iqtidorli talabalari ko'hna Samarqand shahriga yo'l olib, "Welcome to Samarkand" nomli qisqa metrajli video rolikni suratga olishdi. Hozirda video rolikni montaj jarayonlari ketmoqda.

2. Atrof-muhitni muhofaza qilish, turli ekologik muammolarni bartaraf etish bo'yicha yurtimizda qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xuddi shu yo'nalishda institutimiz jamoasi Qoraqalpog'iston Respublikasi hududining ekologik muhitini yaxshilashga doir turli amaliy ishlarni yo'lga qo'ymoqda. Hozirda institutning Farg'ona viloyati filiali hamda Nukus shahar filiali bilan birgalikda butun jahonni tashvishga solayotgan Orol bo'yi hududlarida 100 ming tup nihol ekish ishlari amalga oshirilishi rejalashtirilib, obyektida Kolifomiyaga teragi, turli tol, turang'il va boshqa ko'plab mevali va manzarali daraxt ko'chatlari o'tkaziladi. Hududda ishlar qizg'in ravishda boshlanib yuborilgan.

3. O'zbek san'atini rivojlantirish, sohada yuksak yutuqlarga erishish yo'lida bugun qator ishlar amalga oshirilmoqda. Institutimizning Axborot resurs markazida "San'atshunoslik va madaniyatshunoslik" kafedrasini tomonidan "Zamonaviy o'zbek dramaturgiyasi, rejissura va aktyorlik san'ati muammolari va rivojlanish bosqichlari" mavzusida fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi innovatsion hamkorlikni yanada kuchaytirish maqsadida respublika ilmiy-amaliy seminari o'tkazildi. Tadbirda sohadagi dolzarb masalalar, yechimini kutayotgan muammolar, kadrlar salohiyatini o'stirish, innovatsion g'oyalar tadriji ishlab chiqish singari tamoyillar ko'rib chiqildi va atroflicha muhokama qilindi. Seminartrening usulida o'tkazilib, debat, ma'ruzalar institut rektori, filologiya fanlari doktori, professor Ibrohimjon Yo'ldoshev hamda Ma'naviyat va ma'rifati ishlari bo'yicha prorektor, dotsent Davlat Mullajonovlar ishtirokida keng muhokamalar olib borildi.

4. Bugungi kundayoshlar ma'naviyatini rivojlantirish yo'lida zaruriy ishlarni amalga oshirish masalalari ustuvor bo'lib bormoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim vazirligi hamda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi bilan hamkorlikdagi qo'shma qarorga asosan "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Toshkent shahrida barpo etilgan Adiblar xiyoboniga tashrifi jarayonida berilgan ayrim topshiriqlar ijrosini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar dasturi"da belgilangan vazifalarga muvofiq O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Adiblar xiyobonida talabalar ma'naviy soatlari, madaniy tadbirlarini o'tkazish bilan birga oliy ta'lim muassasasida ma'naviy soatlarni tashkil etish, fidoyi ijodkorlar bilan uchrashuvlar o'tkazish bo'yicha qator ishlarni amalga oshirmoqda. Dasturga muvofiq 1-mart kuni O'zbekiston xalq shoiri Mahmud Toir bilan institutning iqtidorli talaba-yoshlari bilan "So'z sehri" deya nomlangan ijodiy uchrashuv bo'lib o'tdi. Kechada shoir bugun yurtimizda kechayotgan adabiy jarayonlar, o'zbek yoshlarining ma'naviy istiqbollari, yosh va malakali kadrlar borasidagi fikrlarini o'rtoqlashdi. Shoir ijodidan qaynoq she'rlarni o'qib, davradagilarni dillarini xushnud ayladi.

5. Bugun ijtimoiy-madaniy va siyosiy hayotimizda sodir bo'layotgan barcha yangiliklar va o'zgarishlar zamirida chin ma'nodagi kundalik turmushimizni yanada yaxshilash, kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish, farovon hayot tamoyillariga erishish, hur O'zbekistonimizni dunyoning yetakchi davlatlar qatoriga qo'shish kabi oliy maqsadlar ko'zlangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi turizm sabhiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5326-sonli Farmoni ijrosini ta'minlash, fuqarolarni mamlakatimizning madaniy-tarixiy merosi hamda tabiiy boyliklari bilan tanishtirish maqsadida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "Estrada aktyorligi san'ati" ta'lim yo'nalishining bir guruh talaba-yoshlari, kurs rahbarlari san'atshunoslik fanlari normzodi, dotsent Temur Rashidov hamda katta o'qituvchi Shavkat Rasulovlar boshchiligidagi Samarqand shahriga sayohat uyushtirishdi.

Dostonbek RAHMATULLAYEV,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat
institutini matbuot xizmati kotibi

Ўзбек халқининг сеvimли шоираси, таниқ-ли жамоат арбоби Зулфия Исроилова Ватанга муҳаббат, вафо ва садоқат туйғуларини, инсоний фазилатларни тараннум этган, ибратли ҳаёти билан миллий адабиётимизга улкан ҳисса қўшган ўзбек аёлидир.

БАХТИМ ШУЛ – ЎЗБЕКНИНГ ЗУЛФИЯСИМАН



Зулфия 17 ёшида ёзган "Ҳаёт варақлари" (1932) биринчи шеърлар тўплами билан Ойдин, Музайяна Алавия, Хосият Тиллахоновалар сафига кириб келди.

Шоира "Шеърлар", "Қизлар қўшиғи" (1938) каби поэтик асарларини она Ватан ва унинг дала, чўлларида меҳнат қилаётган пахтакорлар, механик, тракторчи қизларнинг қайноқ ҳаётларига бағишлайди. Айни чоғда мазкур тўпламлардаги шеърлари шоиранинг шеърӣ маҳорат сирларини эгаллаётган даврини характерловчи асарлар сифатида ҳам муҳим эди.

Уруш даврида шоиранинг "Уни Фарҳод дер эдилар" (1943), "Ҳижрон кунларида" (1944) каби тўпламларининг нашр этилиши Зулфиянинг пешқадам шоирлар қаторига дадил кириб келаётганлигидан нишона эди. Тўпламдаги шеърлар ватанга муҳаббат, душманга нафрат ва ғалабага ишонч руҳида яратилганлиги билан характерлидир. Зулфиянинг "Менинг Ватаним", "Қўлимда қуролу устимда шинель", "Бизни кут" каби умидбахш шеърлари уруш даври ўзбек шеърятининг жанговар руҳини ифодаловчи асарлар қаторидан ўрин олган.

Шоира урушнинг сўнгги йилларида ёзган

"Далада бир кун" (1948), "Тонг қўшиғи" (1953) каби бир қатор шеърлар туркуми, "Мен тонгни куйлайман", "Юрагимга яқин кишилар" (1958), "Куйларим сизга" (1965) тўпламларида Ватан мадҳи, меҳнат жараёнида фидокорлик кўрсатаётган кишилар ҳаёти жўшиб куйланади. Уни "Сўроқлайди шоирни шеърим" (1960), "Ойдин" (1953), "Қуёшли қалам" (1967) каби очерк ва дostonлари Ойбек, Ойдин,

Ҳамид Олимжон каби устозларнинг ёрқин хотираларига бағишланган.

**Салқин саҳарларда бодом гулида,
Бинафша лабида ерларда баҳор.
Қушларнинг парвози, елларнинг нози,
Баҳмал водийларда, қирларда баҳор.
Қанча севар эдинг, бағрим, баҳорни,
Урик гулларининг эдинг мафтунни.
Ҳар уйғонган куртаси ҳаёт бергани каби,
Қушларинингга суртиб ўпардинг уни.**

Зулфия Ҳ.Олимжоннинг "Семуруғ", "Зайнаб ва Омон" дostonлари асосида пьеса ва опера либреттосини ҳам яратган.

Шоиранинг "Ўйлар", "Шалолар" каби шеърӣ мажмуалари учун Ҳамза номидаги Республика Давлат мукофоти совриндори, ҳинд мавзудаги шеърлари учун Жавахарлал Неру номидаги халқаро соврин, тинчлик ва дўстликни тараннум этувчи асарлари ҳамда тараққийпарвар Осиё ва Африка ёзувчилари ҳаракатидаги фаол иштироки учун халқаро "Нилуфар" мукофотида сазовор бўлган.

У Ҳиндистон, Югославия, Шри Ланка, Миср, Бирма, Австрия каби мамлакатларда бўлиб, 1956 йилда Осиё ва Африка ёзувчиларининг Дехлида ўтказилган биринчи конференциясида қатнашди ва машҳур "Мушоира" (1958) асарини яратди.

Зулфияхоним шеърлари рус, инглиз, немис, ҳинд, болгар, хитой, араб, форс ва бошқа тилларга таржима қилинган. Шоира Некрасов, Лермонтов, В. Инбер, Леся Украинка, Эди Огнецвет, М. Дилбозий, Амрита Притам асарларини ўзбек тилига маҳорат билан таржима қилган.

Атоқли шоира 81 ёшида, 1996 йил 1 августида вафот этди.

Ҳамиша келажакка ишонч, ўтган умридани мамнуният, эл қизи бўла олганидан фахр туйиб, сувратларда бизга куч бағишлаб турувчи Зулфияхоним руҳи бу муборак баҳор кунларида шод бўлсин дегимиз келди. "Бахтим шул – ўзбекнинг Зулфиясиман" деган сўзларни айтиш фақат уни ўзигагина ярашиб туриши, уни халқ билан чамбарчас боғлай олгани бизга ҳаваслидир.

Қундуз НИШОНБОВА,
тарих фанлари номзоди, доцент

ФАРҒОНА МИНТАҚАВИЙ ФИЛИАЛИДА

**ОЛИБ БОРИЛАЁТГАН ИСЛОҲОТЛАР ВА
БАЖАРИЛИШИ ЛОЗИМ БЎЛГАН ВАЗИФАЛАР**

2018 йил 3 март кuni Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти ректори, филология фанлари доктори, профессор Йўлдошев Иброҳимжон Жўраевич институтнинг Фарғона минтақавий филиалини ҳар томонлама ўрганиш мақсадида Қўқон шаҳрига ташриф буюрди.

Ташриф чоғида институт ректори ўз фикрларини билдирар экан, "Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев томонидан 2017 йил 16 августда "Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институтининг Фарғона минтақавий филиалини ташкил этиш тўғрисида"ги ПҚ-3218-сонли Қарорининг қабул қилиниши Фарғона водийсида санъат ва маданият соҳасининг янада ривожланишига, водийликлар қувончи-

га сабаб бўлди. Чунки водий аҳли қадимдан санъатга ошурфта халқ эканлигини таъкидлаб ўтди.

Институт ректори филиалда олиб борилаётган таъмирлаш ишлари билан яқиндан танишди. Шундан сўнг, минтақавий филиал профессор-ўқитувчилари ҳамда таҳсил олаётган талаба ёшлар билан учрашув ўтказди.

Уч соат давом этган учрашувда амалга оширилиши лозим бўлган бир қатор муҳим вазифалар қайта кўриб чиқилиб, уларнинг бажарилиш муддатлари аниқ белгилаб олинди.

Филиалда соҳа учун етук мутахассислар тайёрлаш, янги даврга мос ўқув-методик ва илмий адабиётлар яратиш, уларни таълим жараёнига кенг тадбиқ этиш ҳамда таълим сифатини

оширишга алоҳида эътибор қаратиш зарурлиги таъкидланди. Филиал профессор-ўқитувчилари ва талабалари ўзларининг истиқбол режалари билан ўртоқлашди, улардаги мавжуд муаммолар ўз ечимини топди ҳамда филиал профессор-ўқитувчиларини қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш масалаларига ҳам тўхталиб ўтилди. Учрашувда талабалар ўзларини қизиқтирган барча саволларга жавоб олдилар.

Институт ректори И.Йўлдошев учрашув якунида филиалда олиб борилаётган ишларга омад тилади.

Жўрабек ТҮЙЧИЕВ,
Академик лицей ва
касб-хунар коллежлари билан
ишлаш бўлими услубчиси

НАВРЎЗ — ҚАДИМ ҚАДРИЯТЛАР ТАРОВАТИ

*Зулфур рухсор ила кўминга мени етурсанг,
Хар тўнунг қадр ўлубон, ҳар кўнинг ўлсун Наврўз!
(Алишер Навоий)*

Наврўз! Нафақат ўзбек халқининг, балки шу заминда ҳамжиҳатликда истиқомат қилаётган барча миллат вакилларининг энг гўзал байрамларидан бирига айланган. Уч минг йилдан зиёд тарихга эга бўлган Наврўзи олам — шарқона янги йил ўзининг янгиликларини, баҳор нафасини бошлаб келиши, халқимизнинг табиати, ҳар қайси оила, ҳар қайси хонадонга шоду-хуррамлик олиб кириши билан биз учун энг қадри, азиз ва суюкли миллий байрам ҳисобланади. Наврўз миллий маънавиятимиз ривожидати энг муҳим шодиёнадир.

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институтида ҳам бу йилги Наврўз байрами ўзгача тус олди.



Карнай-сурнай садолари эрта тонгдан институт жамоасини ва талабаларни сайлга чорлади. Атрофни байрам кайфияти чулғаб олди ва ҳар бир кафедра аъзолари ўзининг меҳр билан безатган дастурхони атрофида жамулжам бўлди. Безатилган дастурхонларда юртимиздаги барча вилоятларнинг миллий таомлари, ўзига хос анъаналари, урф-одадлари акс эттирилганлиги кишига ўзгача завқушавқ улашди. Байрам дастурини институтимиз ректори Иброҳимжон Йўлдошев очиб берди ва ушбу кутлуғ айём билан муборакбод этиб, фаол профессор-ўқитувчиларга ҳамда институт миқёсида ўтказилган спорт мусобақаси ғолибларига эсдалик совғаларини топширди.

Куй-қўшиқлар даврата ўзгача файз бағишлади. Эзгулик, мухаббат, хайр-саховат, мурувват, шафкат ва шафоат, янгиликлар ва яшариш айёми қалбларга сурур, олам-олам қувонч ва янги-янги орзу-хаваслар бахш этди. Институт худуди хушбўй гулу чечаклар, турфа ранг байроқчалар, ранго-ранг шарлар билан безатилди. Наврўз дастурда лапарлар, қўшиқлар, халқ термалари ҳамда аскиячитар пайрови кизиди. Фольклор жамоаларининг куй-қўшиқлари талабаларнинг шижоатли қувончига, рақсига уйғунлашиб кетди.

Наврўз байрами элимизга ободлик, тинчлик-тоғувлик, миллатлараро аҳилик, бағрикенглик рамзи, қалбларимизда эзгулик уйғотадиган ҳақиқий шарқона байрам бўлиб қолаверади. Барчамизга Наврўзи олам муборак бўлсин!

Хуршида ФАЙЗУЛЛАЕВА,
Тахририят ва нашриёт бўлими мухарири



КИТОБХОНЛИК ВАЗИФАМДИР!



2018 йилнинг 14 март куни институтнинг Ахборот ресурс маркази залида “Китобхонлик вазифамдир” деб номланган маънавий-маърифий тадбир ўтказилди. Ушбу тадбир “Маданият ва санъат муассасаларини ташкил этиш ва бошқариш” кафедраси ўқитувчиси Баҳодир Усмонов томонидан ташкил этилди. Тадбирни ушбу кафедра мудири Бахтиёр Салайдиннов кириш сўзи билан очиб берди. Сўз олган социология фанлари доктори, профессор Абдусалом Умаров ҳамда фалсафа фанлари доктори, профессор Сайёра Тўйчиеваларнинг маърузалари талабаларда қизиқиш уйғотди.

Китобхонлик вазифамдир... Айнан мана шу мавзудан келиб чиқиб, талабаларга кўпроқ китоб ўқиш, дунёни маънавий жиҳатдан англаш ва бугунги глобализм асрида ёшларнинг мутолаа маданиятини кўтариш долзарб масалалардан бири эканлиги таъкидланди. Китобни шунчаки ўқиш эмас, балки тушуниб ўқиш кераклиги айтиб ўтилди.

Китобга ёшликдан меҳр қўйган инсон ўзини қайта-қайта кашф этади. Давлатимиз раҳбари Шавкат Миромонович Мирзиёев таъкидлаганларидек: “Фарзандларимизда ёшлик чоғидан бошлаб китобга меҳр қўйиш, мустақил фикр юритиш, мураккаб ҳаётий вазиятларда тўғри жавоб топиш кўникмасини шакллантиришимиз даркор”. Зотан китоб нафақат ақл

ва илм машъали балки, ҳар бир инсоннинг ҳаёт йўлидаги чинакам дўсти, суҳбатдоши, ҳамроҳи, ички оламини кашфиётчисидир. Юқорида айтиб ўтганимиздек, китобни сарасини ўқиш ҳам инсондан чуқур салоҳият ва саводни талаб қилади. Масалан, китобхон тарихий асарларни ўқишни ихтиёр қилдими демак, уни ўтмишга бўлган муносабати ва қизиқишини билиш мумкин. “Одам китоб ўқиётганда ўз ақлининг томир отаётганлигини сезиб туради” — дейди қалбни илоҳ тухфаси деб ҳисоблаган шоир Муҳаммад Исмоил. Умуман инсон қандай китоб ўқиши, ўша китоб унинг билиш фалсафасини ва дунёқарашини шакллантиришга хизмат қилади. Бўлиб ўтган тадбирда 3-босқич “Маданият ва санъат муассасаларини ташкил этиш ва

бошқариш” таълим йўналиши талабалари Пўлатова Гулшода — Рашод Нури Гунтекиннинг “Чоли қуши” асари моҳиятини, Умида Суяроева ва Шовкатова Дилафрузлар ўткир Ҳошимовнинг “Икки эшик ораси” асари ғояси талқинларини, Мирзаева Муниса эса Улуғбек Ҳамдамнинг “Бир пиёла сув” ҳикояси бадияти ҳақида, Ирода Бердиева — Чингиз Айтматовнинг “Юзма юз” асарини ҳамда Убайдуллаев Бобур — Чингиз Айтматовнинг “Биринчи муаллим” асарлари тўғрисида ҳикоя қилиб беришди. Талабалар томонидан ўрганилган асарлар қатнашганлар томонидан қизгин савол-жавоблар ва муҳокамаларга бой бўлди ва эндиликда доимий равишда ўтказиб, танлов шаклида давом этиш режалаштирилди. Институтнинг бошқа китобсевар талабалари ҳам фаолликни қўлдан бой бермай мазкур танловда иштирок этишлари мумкин. Бунинг учун эса “Маданият ва санъат муассасаларини ташкил этиш ва бошқариш” кафедрасига мурожаат қилишингиз мумкин.

Мунисахон СИДДИҚОВА,
“Маданият ва санъат муассасаларини ташкил этиш ва бошқариш” таълим йўналиши 3-босқич талабаси

Устозларимиз “Биз шахс етиштирмаймиз, биттирувчиларимизнинг ҳар бири мустақил ижодкор сифатида шаклланади ва ишлаб чиқаришда тез фурсатларда ўз ўрнига эга бўлади”, деб таъкидлайдилар.



Демак, ҳар бир талаба кейинчалик ўз ўрнига эга бўлиши, ўз устида ишлаши учун саҳна муҳим аҳамиятга эга. Ҳар бир диплом спектакллар, тадбирлар, яратилаётган театрлар ўқув театри саҳнасида қизиқиш билан намоиш этилади. Бунда албатта, шу ерда хизмат қилаётган барча ходимларнинг меҳнати ётади. Жорий йилда институт ректори филология фанлари доктори, профессор Иброҳимжон Йўлдошев ташаббуси билан ўқув театри жамоаси “Ёғду” номи билан қайта туғилди. Эндиликда бу жамоа янги қараш ва интилиш билан ўз ижод намуналарини Тошкент шаҳри ва Тошкент вилоятлари бўйлаб намоиш этиб келмоқда. Сабаби институтда яратилган кенг имкониятлар, шарт-шароитлар, энг замонавий техника ва технологияларнинг мавжудлигидандир.

ИНСТИТУТ «ЁҒДУ»СИ



“Ёғду” жамоаси ҳозирда ўзларининг бир-биридан қизиқ спектакллари билан ўз мухлисларига эга бўлишга ҳам улғурди. Сабаби ўқув театри режиссёри Ж.Эгамов томонидан Абдунаби Қўлиевнинг “Яраланган қуш ҳамон учмоқда” пьесаси асосида “Алданган умидлар” спектакли тайёрланди ва жорий йилнинг 27 январь куни Тошкент вилояти Юқори Чирчиқ тумани маданият уйида хайрия сифатида намоиш этилди. Бундан ташқари 7 февраль куни Ахборот технологиялари институтида ҳам намоиш этилиб, институт талабалари томонидан илқ қарши олинди.

Спектаклда кўтарилган асосий ғоя одам совдосига қарши курашиш, ёшларимизни қўлликка тушиб қолмасликларни, уларни турли оқимларга тушиб, қўшилиб кетмасликларни ва ўзларини онли равишда англашлари учун хизмат қилади.



Бундан ташқари “Ёғду” жамоаси Н.Супониннинг “Баджаҳл куёнча” асари асосида Р.Содиқов томонидан сахналаштирилган “Куёнчанинг саргузаштлари” деб номланган кўнирчоқ спектакли 15 март куни Мирзо Улуғбек туманига қарашли 403-сонли мактабгача таълим муассасасида намоиш этилди. Спектакл театр актёрлари Фазлиддин Қаҳҳоров, Нарпиза Сориева, Саубет Пирназаров ҳамда Рустам Содиқовлар томонидан маҳорат билан ижро этилди.

Дўстлик, ўзаро ишонч, садоқат ҳамда меҳр-оқибат каби фазилатларни ўзида мужассам этган ушбу кўнирчоқ спектакли болажонлар томонидан хурсандчилик билан қарши олинди.

Нурилло УСМОНОВ,
Ўқув театри директори

ЭБРУ (АБРУ БАҲОР) САНЪАТИ

2018 йил 7 март куни Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институтида эбру санъати бўйича маҳорат дарси ўтказилди. Дарс жараёнларини кузатиш мақсадида институтга Туркиянинг Ўзбекистондаги фавкуллода ва мухтор элчисининг Санъат ва маданият ишлари бўйича маслаҳатчиси Жесим Челаби, Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирининг биринчи ўринбосари Муродулло Холмухамедов, Ўзбекистон Республикаси бандлик ва меҳнат муносабатлари вазир ўринбосари Зокир Умаров, Ўзбекистон Республикаси Ташқи ишлар вазирлиги Европа ва НАТО мамлакатлари билан алоқалар бошқармаси бўлими бошлиғи Муҳиддин Ҳошимов ва институтимиз ректори филология фанлари доктори, профессор Иброҳимжон Йўлдошевлар ҳам иштирок этди.

Маҳорат дарсини эбру санъати бўйича мутахассис Заур Оручов олиб борди, институт ходимлари ҳамда профессор-ўқитувчилари фаол иштирок этдилар.

Институтимиз ўқитувчиларидан Насиба Сатиболдиева,

Саидрахмат Икромов, Сухроб Хидиров, Ҳабибулло Қобилов, Дилдора Абдуллаева, Музаффар Салимов, Маъруф Салимов, Саида Эргашева, Шухратилло Пулатов, Нажмиддин Раҳимов, Бекзод Давронов, Альтин Утегенова, Рамазон Сатиболдиев, Шалола Яхёева, Дилназов Абдулазизова, Самариддин Нурмухамедов, Қобилжон Мусурмоновлар фаол



иштирок этганлари учун махсус сертификат билан тақдирланди.

— Эбру санъатини рангларнинг сувдаги рақси дейиш мумкин, — дейди эбру санъати мутахассиси Заур Оручов. — Яратилиши бир неча асрлик тарихга эга бўлган эбру санъати махсус тайёрлан-

ган сувда, мўйқалам ва ёрдамчи асбоблар орқали шакллар чиқиш ва уларни қоғозга туширишдир. Санъатнинг бу тури инсонга руҳий хотиржамлик ва ўз ҳис-туйғуларини ифодалаш имконини беради.

Эбру санъати жуда ҳам омалашмаган бўлишига қарамай, ихлосмандлари уни давом эттириш ва келажак авлодларга етказишга ҳаракат қилмоқдалар. Бу санъат тури Туркияда Усманийлар даврида кенг тарқалган бўлиб, кўплаб инсонлар учун ҳатто даромад манбаи ҳам бўлган.

Бу санъат тури асли Шарқ заминидан келиб чиққан ва кейинчалик Европача етиб борган. Лекин айнан қайси мамлакатга пайдо бўлгани аниқ эмас. Фақатгина Шарқ мамлакатларида безак сифатида бу санъат туридан фойдаланилган деган тахминлар бор. Баъзи манбаларда эса эбру санъати қадим Туркистонда, аниқроғи Бухоро заминидан пайдо бўлганлиги ҳам кўрсатилган.

Собиржон ТУРАТОВ,
Ўқув ишлари бўйича проректор

AYOLLAR

Go'zallikda tengsiz pardoz ayollar,

Iffatu hayoga andoz ayollar.

Har ishda chaqqondir, har ishda g'olib,

Kerak bo'lsa, uchar parvoz ayollar.

Ta'lim-tarbiyada o'makdir asli,

Ham bilimdon, dono ustoz ayollar.

O'qishar Navoiy, Lutfiy, Bedilni

So'z sehin anglagan mumtoz ayollar.

Tilsiz aks ettirar hayot, quyunchni

Mahoratli ishda raqqos ayollar.

Hayot sinoviga beradi bardosh,

Qil ko'priq ustida darboz ayollar.

Ko'ngliga og'ir so'z aytmang, azizlar,

G'unchadek nozikdir gulnoz ayollar.

Shohrux Davron deydi: "Baxtli bo'linglar,

Quyunchga to'lib siz, hamroz dilnoz, ayollar".

Shoxrux ERGASHEV,

"Ashula va raqs" ta'lim yo'nalishi

1-bosqich talabasi

Hali yo'nilmagan qalamim biroq,

Nohaqlar yo'lini to'saveradi.

O'pkam nafas olib turarkan toki,

Ijodimning bo'yi o'saveradi.

Tizzam bukilmaydi g'anim poyida,

She'rlarim ko'ksiga otalajak o'q.

Asli yuragimning tarjimoni she'r,

Yuragimning o'zga boshpanasi yo'q.

Umida SAYLIYEVA,

"Sahna va ekran san'ati dramaturgiyasi"

yo'nalishi 3-bosqich talabasi

ИСКУССТВО И СПОРТ – СОВМЕСТИМЫ

В государственном институте искусств и культуры Узбекистана прошли спортивные соревнования среди профессорско-преподавательского состава.

Различные стороны физкультурно-спортивной жизни профессорско-преподавательского состава нуждаются в положительных изменениях, дающих возможность усилить интерес к занятиям физической культурой и спортом, что будет в значительной степени способствовать формированию культуры и профессиональной деятельности. В связи с этим, преподавателями кафедры «Сценического движения и физической культуры» было проведено спортивное мероприятие между сотрудниками государственного института искусств и культуры Узбекистана. Мероприятие приурочено к Международному женскому дню 8 Марта, а также празднику весеннего равноденствия – Навруз.

Развитие физической культуры и спорта в Государственном институте искусств и культуры Узбекистана является важным средством гармоничного развития личности. Физическая культура рассматривается, как составная часть культуры общества, а физическое воспитание – как важнейшее направление социальной политики государства.

На сегодняшний день развитие массового спорта является приоритетным направлением воспитательной работы института.

Большим успехом пользуются в институте не только спортивные соревнования среди студентов, но и спортивные мероприятия среди профессорско-преподавательского состава и служащими, которые в течение ряда лет успешно занимаются популяризацией спорта и пропагандой здорового образа жизни. Принявшие участие заслуженно получили призовые места



и максимальный заряд положительной энергии.

Так, с 12 марта прошли соревнования среди женщин и мужчин. Для женщин: 100 метров бег, настольный теннис, волейбол, а для мужчин: настольный теннис, шахматы, волейбол и мини футбол.

В соревнованиях приняли участие сотрудники института от 30 до 60 лет.

По итогам проведенных соревнований, в беге на 100 метров (женщины) победители:

первое место — Ирода Нурмухамедова (лаборант кафедры "Режиссура кино, телевидения и радио);

По волейболу (женщины) победили:

первое место — Народное творчество;

По настольному теннису (женщины) победили:

первое место — Курбонова Азиза (преподаватель кафедры "Информатика и естественных наук);

По волейболу (мужчины) победили:

первое место — Народное творчество;

По настольному теннису (мужчины) победили:

первое место — Шохобиддин Икромов (преподаватель кафедры "Эстрадное искусство и массовых представлений).

Дилором МАМИРОВА,

доцент кафедры «Сценического движения и физическая культура»

Tikib ko'zlarimni yulduzlar tomon,
Rejalar tuzaman o'zimdian o'zim.
Ushalmaganidan orzum hamon,
Qolmadi armonni ko'rgani ko'zim.

Uyg'otar tushimda meni uyqudan
Turaman ba'zida rosa suyining,
Yorilgudek bo'lar ko'ksim qo'rquvdan
Qolsangiz meni deb axir kuyinib.

Bilmayman nimani xayol surasiz,
To'lib oqishini kuzatib soyning.
Asli ekanligin hamon bilasiz,
Yuzidagi dog'i o'zingiz oyning.

Lahzalar tinmaydi, tinim bilmaydi,
Vaqt o'tar, odamlar parvo qilmaydi.
Umrning bahori, beg'ubor yoshlik,
Seni lahzalarga bergim kelmaydi.

Tutib qolay desam, kelmas qo'limdan,
Kunlar chiqaverar mening yo'limdan.
Men qancha xohlamay senda qolishni,
Soatlar chiqishar o'ngu so'limdan.

Sizsiz chiroqning ham sekin yorishin,
Yig'ladim kuzatib bilmaganimda.
Sal gapga arazlab ko'ngil og'rishin,
Sezmas edim sizni sevmaganimda.

Axir sizdan bo'lak dardim kim bilar,
Ko'rmaganga olib ketsa dilsizlar,
Noz qilsa menimcha, sizchalik qilar,
Sizga havas qilgan chiroyli qizlar.

Rustam ABDIYEV,

Xalq ijodiyoti fakulteti,

"Madaniyat va san'at

muassasalarini tashkil etish va

boshqarish" ta'lim yo'nalishi

1-bosqich talabasi

Yoshlik

Soat millarini sanoqlar tilim,
Sonlar qo'shilganda sovrilar dilim.
Sen shunday yo'lsanki, bosib o'tilgach,
Hech qachon ortiga qaytmaydi yo'lim.

Mana o'n sakkiz yosh, gullagan bahor,
Yurakda shijoat sochmoqda ifor.
O'n to'qqiz, yigirma ular ham yaxshi,
Lekin o'n sakkizda qolib ketgim bor.

Orzugul MUZROBOVA,

Kino, televideniye va radio san'ati fakulteti,

San'atshunoslik (sahna va ekran san'ati dramaturgiyasi)

yo'nalishi 1-bosqich talabasi

BEG'UBOR BAHOR

Bog'imda bahor. Bahorning beg'uborligidan bag'rindagi baxtim butundir. Bilsam, bahordan buyuk beg'uborlik bo'lmaydi. Bilaman, bahorning betakrorligi bitmasdir. Biz bahor bilan birga bo'lsak, boqiylik bizni butunlay borliq bilan birlashtiradi. Baxt borligi bilinadi. Bulutlar bekimib, baxtsizlik bilmaydi. Balki, bezor bahor bizni baxt bilan bezaydi. Bahor bog'imga buyuk barhayotlik bag'ishlaydi. Butkul baxtim butunligi bilinadi. Baxt bilan beg'uborlik birlashib, bahor boshlanadi. Bilasizmi, "bugun" boshqa bo'lmaydi. "Bugun"ni boy bermang, birodarim. Ba-

hor bizga "bugun"ni berdi. Bilib bilmay boy berilgan bahordek beg'ubor "bugun", balki boshqa berilmas. "Bugun"ni boy berib, boshingizni baxtsizlikdan bukmang. Boshingiz baland bo'lib, bilimlaringiz bulog'idan barcha birdek bahramand bo'lsin. Bahordek beg'ubor "bugun"ni baxt biling. Bilingki, bilim baxtga bilmisizlik baxtsizlikka boshlaydi.

Bahor baxtidek baxtimiz butun bo'lsin...

Umida USANOVA,

"Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish" ta'lim

yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Muassis:

O'zbekiston davlat san'at va
madaniyat instituti

Bosh muharrir:

Nafisa RAIMQULOVA

Tahrir hay'ati:

Go'zal XOLIQULOVA

Hamdam ISMOILOV

Antonino KOSHELEVA

Rashid USNATOV

Mas'ul kotib:

Xurshida FAYZULLAYEVA

Muxbirlar klubi sardorlari:

Muharyam BOZOROVA

Shavkat DO'STAMHAMMAD

Tahririyat manzili: 100025 Toshkent shahri, Mirzo
Ulug'bek tumani, Yalang'och mavzesi, 127 A uy.

Telefon: (0-371) 230-28-13.

www.dsml.uz; dsml_info@olam.uz

Gazeta har o'nying oxirgi haftasida «NISO POLIGRAF» MCHJ bosmaxonasida chop etiladi.

Manzil: O'rta Chirchiq tumani, Oq ota QFY, Mash'al mahallasi, Markaz - 1.

Sahifalovchi:

Dilmurod DO'STBEKOV

Gazeta Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasida № 02-00166 raqami

bilan 2012-yil 19-dekabrda ro'yxatga olingan.